

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

**VOLUME I, ISSUE 11**



# **JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES**

**ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ**



**IMFAKTOR**

**NOVEMBER | 2023**

ISSN: 2181-4066  
DOI Journal 10.56017/2181-4066

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 11-СОН

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-11

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-11

ТОШКЕНТ - 2023

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 11 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-11>

## Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

## Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек Ғ.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

## Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергандовна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайбергандов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 2022 йил 22 декабрь кунини **№ 054834**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 8.2** “**импакт-фактор**” кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади**.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: [www.imfaktor.uz/com](http://www.imfaktor.uz/com)

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

**BOBOMURODOVA Latofat Elmuradovna**

*Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat universiteti  
dosenti (PhD)*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10178912>

## TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILLARI

### ANNOTATSIYA

Maqolada talabalar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmun-mohiyati va hozirgi kundagi muammolari hamda istiqbollari, ya'ni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash haqida fikr yuritilgan. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, o'yin texnologiyalari, muammoli o'qitish, xususan, mustaqil ta'limning noan'anaviy metodlari muhim o'rin tutishi haqida keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lim, texnikaviy ko'nikmalar, mazmunan integrasiyalash, texnologik yondashuv, avtodidaktika, invariant, mustaqillik, faollik, qiziquvchanlik, aniq fanlar, texnologiya, injiniring, ijodiy san'at va matematika.

## ВАЖНЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ

### АННОТАЦИЯ

В статье раскрыты сущность, современные проблемы и перспективы организации самостоятельного образования в развитии профессиональной подготовки студентов, то есть повышение уровня охвата высшим образованием высококвалифицированных, творчески и системно мыслящих, независимых лиц, принимающих решения. на основе международных стандартов подумали о подготовке кадров. Широко освещается значение современных методов, форм и средств обучения, игровых технологий, проблемного обучения и, в частности, нетрадиционных методов самостоятельного обучения в повышении качества и эффективности образования.

**Ключевые слова:** самостоятельное обучение, технические навыки, интеграция контента, технологический подход, авто дидактика, инвариант, независимость, активность, любознательность, точные науки, технологии, инженерия, творчество и математика.

## IMPORTANT PEDAGOGICAL FACTORS OF FORMING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS

### ANNOTATION

In the article, the essence and current problems and prospects of organizing independent education in the development of professional training of students, that is, increasing the level of coverage with higher education, highly qualified, creative and systematically thinking, independent decision-makers based on international standards thought about the training of personnel. The importance of modern teaching methods, forms and tools, game technologies, problem-based teaching, and in particular, non-traditional methods of independent education, is widely covered in improving the quality and efficiency of education.

**Key words:** independent learning, technical skills, content integration, technological approach, autodidactic, invariant, independence, activity, curiosity, exact sciences, technology, engineering, creative arts and mathematics.

Keyingi yillarda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotida, ayniqsa, ta'lim sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Ta'lim sohasida bo'layotgan o'zgarishlar, ya'ni qabul qilingan qonun va farmoyishlar jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir qilishi shubhasizdir. Ular mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishda, davlat ta'lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasida "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejizga emas albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak" deb ta'limga innovatsion yondashuv to'g'risida aniq yo'l -yo'riqlar ko'rsatib berilgan [1].

Mamlakatimizda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning maqsadi ta'lim tizimini takomillashtirish va jahon andozalari talablari darajasida tashkil qilish, davlat ta'lim standarti talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh, yetuk mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir.

Zero, "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash; oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini investisiya dasturlari, hududiy va tarmoq dasturlari, vasiylik kengashlari talablari, jahon miqyosidagi texnologik o'zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, ta'lim yo'nalishlari hamda mutaxassisliklarni optimallashtirish, bunda STEAM yo'nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, injiniring, ijodiy san'at va matematika) rivojlantirishiga oid masalalar, mustaqil ta'lim soatlari xajmini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni qo'llash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish bo'yicha alohida talab hamda vazifalar qo'yilgan.

Malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri – bu ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, o'yin texnologiyalari, muammoli o'qitish, xususan, mustaqil ta'limning noan'anaviy metodlari muhim o'rin tutadi.

Bu esa oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ta'limi mazmunini ishlab chiqish va uni tashkil etish hamda amalga oshirish usullarini takomillashtirish borasida ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Mustaqil ta'lim olish yetuk mutaxassis bo'lib yetishishning muhim omili hisoblanadi. Bu ayniqsa kasbiy tayyorgarlik tizimida yakqol namoyon bo'ladi. Ajdodlarimiz ham yosh avlodning kasb-hunar egallashiga, yetuk, tarbiyali, taraqqiyotga xizmat qiluvchi inson bo'lib yetishishiga ahamiyat berishgan.

Sharqning buyuk allomalari o'z ijodlarida mehnat qilishni, kasb-hunar egallashning ahamiyatini ta'kidlab o'tganlar. Muhammad al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Farg'oniy, Axmad Yassaviy, Yusuf Xos-Hojib, Shayh Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshbandiy, Abdurahmon Jomiy, Imom al Buxoriy, Axmad Yugnakiy va Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar mehnatni, kasb-hunarni ulug'laganlar. Bahovuddin Naqshbandiy (1318-1389 yil) buyuk naqshbandiylik ta'limotining asoschisi bo'lib, «Dil ba yor u, dast ba kor», ya'ni «Diling Oллоhga, qo'ling mehnatga bo'lsin» deb o'rgatganlar. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy deyarli har bir asarida hunar o'rganishni, halol mehnatni ulug'laganlar. Jumladan, «Farhod va Shirin» dostonida shunday yozadi: «Hunarni asrabon netkumdir oxir, olib tuproqqamu ketgumdir oxir» [2].

Yuqorida sanab o'tilgan buyuk allomalar o'z hayoti va ijodiy faoliyatlarida kasb-hunar egallashni ulug'lash bilan bir qatorda kasb-hunar egallashda mustaqil ish bajarishning naqadar muhimligini ta'kidlaganlar.

Mustaqil ishlarining umumnazariy va tashkiliy-metodik masalalari bo'yicha pedagog olim N.Muslimov ta'lim oluvchilarning quyidagi ko'rinishdagi mustaqil ishlarini e'tirof etgan: masalalar yechish, mashqlar, grafik va ko'rgazmali ishlarni amaliy va laboratoriya ishlarida bajarish. O.A.Qo'ysinovning fikricha, «Talabalarning mustaqil ishlari bu ularning individual o'quv-bilish faoliyatining ko'rinishidir». Mustaqil ishlarga o'qituvchi bevosita rahbarlik qilishi zarur.

Mustaqillik – shaxs xarakterining ijobiy xususiyatlaridan biri bo'lib, inson tafakkuri tizimida, turli ko'rinishdagi faoliyat va harakatlarida aks etadi. Mustaqillik tushunchasi inson oldida turgan vazifalarni hal etish yo'llari va vositalarini tanlashdagi mustaqillik to'g'risidagi tasavvur bilan bog'liqdir. Bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish-talaba faoliyatining ta'lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o'qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. Mustaqil o'qib, bilim orttirish jarayoni talabalarning mustaqil tayyorgarlik ko'rishi demakdir.

Talabalar mustaqil ta'lim olish bilan shug'ullanishlari uchun ularda mustaqillik, faollik va qiziquvchanlik xususiyatlari shakllangan bo'lishi kerak. Bu uch xususiyat o'zaro aloqadorlikda va mutanosiblikda mustaqil ta'limga undovchi xususiyatlar hisoblanadi. Mustaqillik bunda talabalarning muammoni hal qilishga, mavzuni o'rganish va amaliy vazifalarni bajarishlariga mustaqil holda ijodiy yondoshishlari tushuniladi. Faollik bunda talabalarning jarayonlarga faol, ishtiyoq bilan kirishishlari tushuniladi. Qiziquvchanlik bunda talabalarning bilim olishga, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayoniga qiziqish, intilish bilan yondoshishlari tushuniladi.

Talabalar bilim va malakalarini oshirishi uchun aniq manbani mustaqil o'zlashtirishga o'z kuchini jalb qilishi kerak, shundagina u kasbiy amaliy faoliyatida yuqori darajalarga erishishi mumkin. Ma'lumki, talabalar ta'lim olish jarayonida o'zlarida bilim olishga ijodiy munosabatlarni shakllantirishlari, dars materiallarini yuqori darajada o'zlashtirishlari kerak.

Talabalarning bilimlarni mustaqil o'zlashtirishda mustaqil ta'lim olish, ya'ni avtodidaktika (avtodidaktika – o'z-o'zini o'qitish va avtonomlik) tamoyili hamda inson ehtiyojlari piramidasidagi o'z-o'zini namoyon qilish ehtiyoji o'zaro aloqadorligini ko'rishimiz mumkin.

Avtodidaktika–bilimlarni o'zlashtirish, tasavvurlarni rivojlantirish, tushunchalar, ko'nikma va malakalarni hosil qilish yo'lida o'quv jarayonining subyektiv maqsadiga muvofiq muntazam, mustaqil hamda avtonom xususiyatga ega faoliyatni tashkil etish sanaladi. Avtodidaktika tamoyilining muhim elementlari bo'lgan «mustaqil ta'lim olish», «o'z-o'zini tarbiyalash» hamda «mustaqil o'qish» kabi tushunchalar aniq maqsad asosida muntazam, uzluksiz tashkil etiluvchi, mustaqil va individual faoliyat mazmunini ifodalashga xizmat qilishi qayd etib o'tildi [3].

Talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil qilishda muammoli masalalar va topshiriqlar berish orqali ularning faolligini, ta'lim samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi. Ammo mustaqil ish mazmunini har doim ham bilim olishdagi kabi muammo ko'rinishida ifoda etib bo'lmaydi. O'quv muammolari o'rtasidagi "oraliqu" subyekt reproduktiv yo'l bilan o'zlashtiradi. Didaktik jihati invariant bo'lib, u belgilab qo'yilgan va o'quv faoliyatining doimiy tarkibiy qismlari: predmet, vosita, usullari, natijalari va shaklini boshqaradi.

Mustaqil bilim olish texnologiyasi va mustaqil bilim olish ehtiyojlari bir-biri bilan bog'liqdir: aniq natijaga erisha olishiga ishonmaslik talabning mustaqil bilim olishdan ko'nglini sovitadi. Mustaqil bilim olish texnologiyasini yaratish bir necha alohida muammolarni hal etishni ko'zda tutadi. Ulardan eng muhimi mustaqil muntazam bilim olish maqsadini aniqlay olishdir.

Agar talabadan kutilmagan holda topshiriqlarni mustaqil bajarish talab etilsa, u topshiriqlarni bajara olmasligi mumkin. Natijada talaba o'z kuchiga bo'lgan ishonchni yo'qotadi. Bunday holat sodir bo'lmasligi uchun dastlab topshiriqlarni shu tahlilda berish kerakki, bunda subyekt topshiriqning biror qisminigina mustaqil bajarsin, so'ngra o'qituvchi bilan birgalikda natijalarning to'g'riligini tahlil qilib chiqsin.

Topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalarda sababiy-tashkiliy (o'quv faoliyatini mustaqil tashkil etishning qadriyatli yo'nalishlari, bilim, ko'nikma, malakalari), mazmunli-prosessual (o'quv faoliyatining mohiyatini bilish hamda bu faoliyat muvaffaqiyatli bo'lishini belgilovchi shaxsiy sifatlarni rivojlantirish) va tekshirish-baholash (mustaqil bilim olishda zarur sanalgan shaxs xususiyatlarini o'zi baholash) kabi ko'nikmalarning shakllanishi mustaqil bilim olish jarayonida majmuaviy ravishda shakllanib boradi [4].

Talabning faolligi obyektning o'zi bilan ishlashga yo'nalgan bo'lsa, bunday hollarda ko'proq bilish motivlarining har xil turlari haqida fikr yuritish mumkin. Talabning faolligi mehnat davomida boshqa kishilar bilan munosabatga yo'nalgan bo'lsa, unda turli ijtimoiy motivlar mavjud deyish mumkin. Talabalarning – dars mobaynidagi mustaqil ishlari bu texnik–texnologik, iqtisodiy va tashkiliy mashqlardir. Mashqlar puxta o'ylab tuzilgan pedagogik jihatdan asoslangan amaliy tizimdan iborat bo'lib, talabalarda izchillik bilan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni ko'zda tutishi kerak.

Tegishli mavzu uchun texnik, texnologik, iqtisodiy va tashkiliy mashqlar tizimini belgilashda amal qilish lozim bo'lgan asosiy talablar quyidagilardan iborat: texnik,

- texnologik, iqtisodiy va tashkiliy mashqlarning mazmun jihatdan izchilligi va o'zaro bog'liqligi;

- mazmun va didaktik topshiriqlarning osondan-qiyinga, ya'ni murakkablashib borishi;

- talabalar mustaqillik darajasining asta-sekin o'sib borishi;

- texnik, texnologik, iqtisodiy va tashkiliy mashqlarning mazmuni hamda didaktik vazifalar jihatidan turli-tumanligi;

- vaqt bo'yicha to'g'ri taqsimlanishi; o'zaro bog'liq mavzular doirasida takrorlanuvchanligi va hokazolar

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim tizimi talabaga "obyekt" sifatida emas, balki "subyekt" sifatida yondashishni taqozo etmoqda. Bu esa o'z navbatida shaxsning bilish va ijodiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan muntazam o'quv faoliyati bo'lgan mustaqil ta'limning dolzarbligini oshirmoqda.

Shunday qilib, *mustaqil ta'lim* deganda, belgilangan topshiriqlarni talabalar tomonidan ijodiy hamda mustaqil bajarishga mo'ljallangan o'quv faoliyatini tushunish kerak. Mustaqil ta'lim negizini ta'lim oluvchining mustaqil ishlari tashkil etadi. Mustaqil ishlar o'quv-bilish faoliyatining bir turi, o'quv faoliyatining shakl-usuli, bilim o'zlashtirish yo'li, vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Mustaqil ishlash ikki maqsadni ko'zlaydi.

- talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish, bu talabalarda ijodiy fikrlash malakasini rivojlantirish uchun zarur;

- o'qituvchi rahbarligida talabalarni individual mustaqil ta'lim olish asosida bilim egallashga o'rgatish.

Mustaqillik shaxs ijodiy faoliyatining ajralmas tarkibiy qismini tashkil etadi. Ijod esa faqatgina iste'dodli shaxslargagina xos bo'lmay, butun bir keng ommaga xosdir. Shunga ko'ra, ta'lim jarayonida barcha talabalarda ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish mumkinligi qat'iy isbotlangan.

Ijodiy faoliyat faqat insoniyat uchun xarakterli bo'lib, insoniyat paydo bo'lgandan buyon mazkur jarayon natijalari to'planib, avloddan avlodga o'tkazilib kelinmoqda. Shaxs tug'ilgandan boshlab ijodiy faoliyati orqali o'z ongida olamni yangidan kashf etadi va muayyan tajribalarni egallaydi. Talabalarning ijodiy faoliyati o'quv fanlari mazmunidagi asosiy g'oya, nazariyalar, qonuniyatlar va tushunchalarni mustaqil ravishda o'zlashtirib, g'oya, o'z izlanishi va ijodiy faoliyati orqali ularni qayta kashf etish sanalishini alohida ta'kidlab o'tgan.

Mustaqil ravishda yaratilgan ijodiy mahsulot: model, jadvallar, maketlar, krossvord, test va h.k. ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan fazilatlarni keng ko'lamda va samarali rivojlantirishning ana shunday natijalaridandir. Bayon etilganlarning hammasi biz tanlagan mavzularni nihoyatda dolzarbligidan dalolat beradi.

## ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. 2022 yil 20 dekabr. // [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
2. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilgan maruza. T., Xalq so‘zi, 2020 yil dekabr.
3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2005.
4. PF-5847-son 08.10.2019. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.

ISSN: 2181-4066  
DOI Journal 10.56017/2181-4066

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 11-СОН

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-11

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-11

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)